



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 1 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	<i>SUG'URTA XIZMATLARI BOZORINI MODERNIZATSIYA QILISH VA UNING QAMROVINI OSHIRISH YO'LLARI</i> <i>Adilova Gulnur Djurabayevna</i>	4
2.	<i>AGROSANOAT MAJMUIDA SUG'URTALANGAN OB'EKTAR HOLATINI MONITORING QILISHDA RAQAMLI GAT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Yadgarov Akram Akbarovich</i>	7
3.	<i>MAMLAKAT ICHKI INVESTITSION IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISHDA SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI</i> <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	11
4.	<i>SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIVAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	15
5.	<i>SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BOSHQARISH TIZIMI</i> <i>Xolbayev Azamat Yuldashovich</i>	20
6.	<i>MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIVAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH</i> <i>Abdusattarova Dildora Bohodirovna</i>	25
7.	<i>O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY SOHA XARAJATLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI</i> <i>Rashidova Guzal Abduvohidovna, Xamroyev Mexroj Sirojxonovich</i>	29
8.	<i>KORXONALAR MOLIVAVIY NATIJALARINI BOSHQARISHDA RAQAMLASHTIRISH TIZIMINING ROLI</i> <i>Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o'g'li, Faxriddinov Bekzodbek Faxriddin o'g'li</i>	32
9.	<i>TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BAHOLASHDA RISKLAR VA DIVERSIFIKATSIYANING O'RNI</i> <i>Toshtemirov Doston O'ktam o'g'li</i>	36
10.	<i>ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS: CONCEPTUAL FOUNDATIONS AND THREAT MITIGATION FRAMEWORK</i> <i>Agzamov Avazon Talgatovich, Malikova Dilrabo Muminovna</i>	40
11.	<i>ШАФФОФ ИНВЕСТИЦИОН МУХИТНИ ЯРАТИШГА ҚАРАТИЛГАН ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ</i> <i>Имомов Хамдилла Хамдамович</i>	44
12.	<i>TURIZM KORXONALARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISH MASALALARI</i> <i>Axrorov Zarif Oripovich</i>	47
13.	<i>ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКУ</i> <i>Эргашева Юлдуз</i>	50
14.	<i>O'ZBEKISTONDA TRANSPORT LOGISTIKASI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH SAMARADORLIGI</i> <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Fozilova Shaxloxon</i>	52
15.	<i>YURIDIK SHAXSLAR MOL-MULKINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI</i> <i>Agzamov Avazxon Talgatovich</i>	55
16.	<i>JISMONIY SHAXSLARNING DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH TARTIBI VA UNING NAZARIY ASOSLARI</i> <i>Bobomurotova Manzura Panji qizi</i>	58
17.	<i>O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO STANDARTLARNING O'RNI VA AHAMIYATI</i> <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	62

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshov Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIVAVIY HOLATINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Xattabov Murodulla Batirovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Sug'urta ishi kafedrasida
mustaqil izlanuvchisi
xattabov@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada sug'urta kompaniyalar moliyaviy holatini baholashning ilmiy-amaliy asoslari yoritib berilgan. Sug'urta kompaniyalar ixtiyorida yig'ilgan bo'sh mablag'larni joylashtirish imkoniyatlari asoslangan. Sug'urta kompaniyalar moliyaviy holatini baholash metodlari tahlil etilgan. Sug'urta kompaniyalar moliyaviy holatini baholash metodlarini takomillashtirish yo'nalishlari ishlab chiqilgan. Olib borilgan izlanishlar natijasi uloroq ilmiy va amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, potensial sug'urtalanuvchi, sug'urtalovchining investitsiya faoliyati, sug'urtalovchining moliyaviy resurslari.

Abstract: The article covers the scientific and practical foundations of assessing the financial condition of insurance companies. The possibilities of placing free funds accumulated at the disposal of insurance companies are discussed. Methods for assessing the financial condition of insurance companies are analyzed. Directions for improving methods for assessing the financial condition of insurance companies are developed. The results of the research provide further scientific and practical recommendations.

Keywords: insurer, policyholder, potential policyholder, investment activity of the insurer, financial resources of the insurer.

Абстрактный: В статье рассматриваются научно-практические основы оценки финансового состояния страховых компаний. Обсуждаются возможности размещения свободных средств, накопленных в распоряжении страховых компаний. Анализируются методы оценки финансового состояния страховых компаний. Разрабатываются направления совершенствования методов оценки финансового состояния страховых компаний. Результаты исследования содержат дальнейшие научно-практические рекомендации.

Ключевые слова: страховщик, страхователь, потенциальный страхователь, инвестиционная деятельность страховщика, финансовые ресурсы страховщика.

Introduction (Kirish/Vvedenie).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni hamda 2024-yil 1-martdagi PQ-108-son "Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatini oshirish yo'nalishlarini belgilashda dolzarb masalalarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ularning uzoq muddatli samarali faoliyatini ta'minlash va sug'urta xizmatlari iste'molchilari oldidagi majburiyatlarini bajarish qobiliyatini aniqlashda muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Shu bois, sug'urta kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash metodlarini aniqlash va ularni tanlash mezonlarini takomillashtirish bo'yicha samarali islohotlar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz rivojlanishining hozirgi holati va davlat iqtisodiy siyosatining o'zgarib borishi iqtisodiyotning dolzarb muammolarini, jumladan sug'urta kompaniyalar moliyaviy holatini baholash bilan bog'liq masalalarni muntazam qayta ko'rib chiqish va ilmiy tadqiq etishni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Iqtisodiy adabiyotlarda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi bo'yicha o'zbek iqtisodchi olimlar va mutaxassislari qator tadqiqot ishlarni amalga oshirgan. Xususan, J.T.Nosirov o'z tadqiqotlarida sug'urta kompaniyalar moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab, ularning boshqarish bosqichlarini belgilagan. Olimning fikricha, moliyaviy barqarorlik jismoniy va yuridik shaxslar

manfaatlarini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ijobiy jihati shundaki, olim barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni kompleks tahlil qilgan. Biroq, salbiy jihati sifatida bu tadqiqotlar mahalliy bozordagi amaliy natijalar bilan kam yoritilganini aytish mumkin [1].

Iqtisodchi olim O.Hamdovning izlanishlari aksiyadorlik jamiyatlari, jumladan, sug'urta kompaniyalar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy menejmentning o'rini aniqlashga qaratilgan. Olim sug'urta kompaniyalar faoliyatida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini qo'llashni taklif etadi, bu nazariyaning asosiy ijobiy jihati hisoblanadi. Ammo bu qarashlarda jahon sug'urta bozori bilan qiyosiy tahlillar yetishmasligi kuzatiladi[2].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa usullardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida sug'urta kompaniyalar moliyaviy holatini baholash va uning nazariy asoslari hamda tashkiliy xuquqiy asoslarini takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirib o'tildi. Shuningdek, qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan mamlakatlarda sug'urta tashkilotlari moliyaviy holatini baholash va uning nazariy asoslaridan foydalanish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты. Analysis and results).

Sug'urta kompaniyalar moliyaviy holatini baholash avvalambor, birinchi moliyaviy barqarorlik sug'urta kompaniyasining mijozlar oldidagi javobgarligini ta'minlaydi, bu esa sug'urta bozorining ishonchlilikini oshiradi. Ikkinchidan, moliyaviy barqarorlikni to'g'ri baholash sug'urta kompaniyalarining iqtisodiy xavf-xatarlarini kamaytirish imkonini beradi. Uchinchi, bozor raqobatbardoshligi

sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, baholash metodlarini takomillashtirish va samarali mezonlarni ishlab chiqish nafaqat sug'urta kompaniyalari, balki iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligi uchun ham muhimdir.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy qo'llaniladigan metodlarning asosiy qismlari quyida keltirilgan 1-rasmda o'z ifodasini topgan. Rasm ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash ularning uzoq muddatli samarali faoliyat yuritishi, mijozlar oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarishi va sug'urta bozorining ishonchligi ta'minlanishi uchun juda muhimdir. Bunda turli tahlil metodlari qo'llaniladi, ular har tomonlama baholash imkoniyatini yaratib, kompaniyaning moliyaviy holatini aniqlash va xavf-xatarlarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili sug'urta kompaniyalarining aktivlari, kapital tuzilishi, to'lov qobiliyati va likvidlik darajasini baholash uchun qo'llaniladi. Bu metod orqali kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinib, ularning dinamikasi va samaradorligi baholanadi. (1-rasm).



1-rasm. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini baholash metodlari¹

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash ularning uzoq muddatli samarali faoliyat yuritishi, mijozlar oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarishi va sug'urta bozorining ishonchligi ta'minlanishi uchun juda muhimdir. Bunda turli tahlil metodlari qo'llaniladi, ular har tomonlama baholash imkoniyatini yaratib, kompaniyaning moliyaviy holatini aniqlash va xavf-xatarlarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili sug'urta kompaniyalarining aktivlari, kapital tuzilishi, to'lov qobiliyati va likvidlik darajasini baholash uchun qo'llaniladi. Bu metod orqali kompaniyaning moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilinib, ularning dinamikasi va samaradorligi baholanadi. Shuningdek, qayta sug'urta darajasi, zaxiralar hajmi va kapital yetariligi kabi omillar tahlil qilinadi, bu esa sug'urta kompaniyasining o'z moliyaviy resurslaridan samarali foydalanishini aniqlashga yordam beradi.

Stress-testlar iqtisodiy o'zgarishlar va turli moliyaviy shoklar ta'sirida kompaniyaning barqarorligini baholash uchun ishlatiladi. Bunda inflyatsiya, valyuta kursining o'zgarishi, makroiqtisodiy inqirozlar va boshqa tashqi omillarning sug'urta kompaniyasiga ta'siri modellashtiriladi. Bu metod kompaniya rahbariyati va moliyaviy tahlilchilariga ehtimoliy xavflarni oldindan baholash va zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Qarzdorlik va to'lov qobiliyati tahlili sug'urta kompaniyalarining moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini baholashga yo'naltirilgan. Bunda kompaniyaning balans va moliyaviy hisobotlari tahlil qilinadi, shuningdek, joriy va uzoq muddatli qarzdorlik miqdori, aktiv va passivlar o'rtasidagi mutanosiblik, to'lov qobiliyati darajasi

hisoblab chiqiladi. Agar sug'urta kompaniyasining qarz majburiyatlari yuqori bo'lsa va likvid aktivlari yetarli darajada bo'lmasa, bu uning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Markov modellari va regressiv tahlil metodlari moliyaviy prognoz qilish va xavf-xatarlarni baholash uchun ishlatiladi. Bu modellar kompaniyaning kelajakdagi moliyaviy holatini aniqlash, sug'urta bozorida dinamik o'zgarishlarni hisobga olish va moliyaviy oqimlarni prognoz qilishda qo'llaniladi. Ayniqsa, regressiv tahlil iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda va kelajakdagi moliyaviy natijalarni bashorat qilishda samarali vosita hisoblanadi.

Maxsus reyting tizimlari sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholashda keng qo'llaniladi. Xalqaro va mahalliy reyting agentliklari sug'urta tashkilotlarining moliyaviy holatini, tavakkalchilik darajasini va mijozlar uchun ishonchligini baholaydi. Bu reytinglar sug'urtalanuvchilar, investorlar va davlat tartibga soluvchi organlar uchun muhim ma'lumot manbai hisoblanadi. Kompaniyaning yuqori moliyaviy reytingi uning bozordagi obro'si va raqobatbardoshligini oshiradi.

Ushbu metodlardan samarali foydalanish sug'urta kompaniyalari uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mijozlarga ishonchli xizmat ko'rsatish va sug'urta bozorida raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Shuningdek, ular kompaniya rahbariyatiga strategik qarorlar qabul qilishda va tavakkalchiliklarni kamaytirishda yordam beradi. To'g'ri tanlangan baholash metodlari orqali sug'urta kompaniyalari o'z faoliyatini yanada samarali yo'lga qo'yishi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashi mumkin.

O'zbekistonda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholashda xalqaro tajribaga asoslangan turli metodlardan foydalanish imkoniyati mavjud. Biroq, bu metodlarni qo'llash sharoitlari va ularning samaradorligi bir qator ichki va tashqi omillarga bog'liq. Mamlakatdagi sug'urta bozori rivojlanish jarayonida bo'lib, bozor mexanizmlarini takomillashtirish, qonunchilikni mustahkamlash va raqobat muhitini yaxshilash bo'yicha islohotlar olib borilmoqda.

Iqtisodchi M.Nurmuratov moliyaviy tizim barqarorligi va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi aloqalarni yoritib bergan. Olimning fikricha, sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligi umumiy iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiladi. Nazariyaning ijobiy jihati shundaki, iqtisodiy omillar va sug'urta sektorining o'zaro ta'siri aniq tahlil qilingan. Salbiy jihati sifatida esa normativ-huquqiy bazani takomillashtirish borasida yetarlicha takliflar berilmagani ko'rsatiladi[3].

Professor X.Shennayev o'zining tadqiqot va amaliy ishlarida O'zbekistonda sug'urta bozorini rivojlantirish va sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratgan. Uning izlanishlari sug'urta madaniyatini oshirish, sug'urta kompaniyalarining ishonchligini ta'minlash va ularning moliyaviy samaradorligini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, ko'plab amaliy takliflar bilan boyitilgan. Shennayevning tadqiqotlari sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash uchun innovatsion uslublarni ishlab chiqishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, u bozor mexanizmlarini joriy qilish va sug'urta tashkilotlarining investitsiyaviy faolligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar bergan. Mahalliy sug'urta kompaniyalari faoliyatini xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan e'tibori uning tadqiqotlarida alohida o'rin tutadi[4].

Sug'urta tashkilotlari moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili O'zbekistondagi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlariga asoslanadi. Moliyaviy barqarorlikni baholashda kapital yetariligi, likvidlik, daromadlilik va sug'urta zaxiralarining shakllanishi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Biroq, bu metodni samarali qo'llash uchun aniq va ishonchli moliyaviy ma'lumotlar mavjud bo'lishi zarur. Ba'zi hollarda sug'urta kompaniyalarining hisobotlari yetarlicha oshkora bo'lmagani yoki buxgalteriya standartlari to'liq xalqaro mezonlarga mos kelmagani sababli tahlil jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Stress-testlar O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari tomonidan cheklangan darajada qo'llanilmoqda. Bu usul makroiqtisodiy o'zgarishlar va iqtisodiy inqirozlar ta'sirini baholash uchun muhim sanaladi. Davlat tomonidan moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-

¹ Ilmiy tadqiqot va maqolalarga asoslanib muallif tomonidan tuzildi.

tadbirlar qabul qilingan bo'lsa-da, sug'urta kompaniyalari uchun stress-test modellarini to'liq joriy qilish mexanizmlari hali rivojlanish bosqichida. Sug'urta tashkilotlari moliyaviy xavf-xatarlarni oldindan aniqlash va ularni boshqarish uchun bunday testlardan kengroq foydalanishi zarur.

Qarzdorlik va to'lov qobiliyati tahlili O'zbekistonda sug'urta kompaniyalari tomonidan qo'llaniladigan asosiy metodlardan biri bo'lib, u kompaniyalarning moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini aniqlash uchun ishlatiladi. Biroq, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga muvofiq keltirish va hisob-kitoblarning shaffofligini oshirish talab etiladi. Shuningdek, qayta sug'urta mexanizmlarining rivojlanmaganligi va sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatiga ta'sir etuvchi valyuta xavfi kabi omillar bu metodning samaradorligiga ta'sir qilishi mumkin.

Markov modellari va regressiv tahlil metodlari O'zbekistonda cheklangan darajada qo'llaniladi. Bu usullar sug'urta kompaniyalarining moliyaviy holatini prognoz qilish, bozordagi dinamik o'zgarishlarni baholash va moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish uchun samarali vositalar hisoblanadi. Biroq, bu modellarni to'liq joriy qilish uchun yetarlicha ishonchli ma'lumotlar bazasi va rivojlangan moliyaviy bozor infratuzilmasi talab etiladi. Shu bilan birga, sug'urta sohasida tadqiqotlarni kuchaytirish, aktuariylar faoliyatini kengaytirish va moliyaviy tahlilchilarning malakasini oshirish bu metodlarni O'zbekistonda qo'llash imkoniyatlarini yaxshilashi mumkin.

Maksimal reyting tizimlari O'zbekistonda mahalliy va xalqaro reyting agentliklari tomonidan cheklangan darajada qo'llanilmoqda. Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash uchun reyting tizimlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni kuchaytirish va milliy reyting tizimini takomillashtirish zarur. Shuningdek, reyting baholarini sug'urta kompaniyalarining tijorat faoliyati va investitsiya imkoniyatlariga bog'lash orqali bozor mexanizmlarini rivojlantirish mumkin.

O'zbekistonda sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini baholash metodlarini samarali qo'llashga ta'sir etuvchi bir qator omillar mavjud. Birinchidan, qonunchilik va tartibga solish mexanizmlarini xalqaro mezonlarga moslashtirish zarur. Ikkinchidan, moliyaviy hisobotlar shaffofligi va ishonchligini oshirish, kompaniyalarning hisobot berish madaniyatini rivojlantirish muhim. Uchinchidan, sug'urta bozorini raqobatbardoshlikka yo'naltirish, sug'urta mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va qayta sug'urta mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Shuningdek, sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda bank-moliya tizimi va davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari tahlil qilinib, ularning iqtisodiy samaradorligi baholandi. Sug'urta kompaniyalari faoliyatida bozor mexanizmlarini rivojlantirish, raqobat muhitini kuchaytirish va moliyaviy xavf-xatarlarni samarali boshqarish bo'yicha asosiy yo'nalishlar ko'rib chiqildi.

APEX INSURANCE kompaniyasining 2021-2025 yillardagi sug'urta mukofotlari dinamikasi sug'urta bozorida faol rivojlanish, xizmatlar qamrovi kengayishi va mijozlar talabi ortib borayotganini ko'rsatadi. Ixtiyoriy va majburiy sug'urta bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlar kompaniyaning bozordagi mavqei, strategik qarorlar samarasi va o'sish tendensiyalarini aniqlashga imkoniyat beradi. (1-jadval).

1-jadval

APEX INSURANCE kompaniyasi sug'urta mukofotlarining yillar bo'yicha o'sish dinamikasi mlrd so'mda²

Ko'rsatki	2021	2022	2023	2024	2025	2021 yilga nisbatan 2025 yilda o'sish yoki kamayish (%) da
Ixtiyoriy sug'urta	154,1	482,264	1210,833	121,0382	151,0248	98,0%
Majburiy sug'urta	75,01	300,24	800,10	1252,318	979,92	130,0%
Jami	229,12	782,58	2010,93	2462,700	2490,240	108,0%

² Muallif tomonidan tayyorlangan.

Ko'rsatki	2021	2022	2023	2024	2025	2021 yilga nisbatan 2025 yilda o'sish yoki kamayish (%) da
Ixtiyoriy sug'urta	20,241	184,190	204,200	348,165	450,148	222,3%
Majburiy sug'urta	14,890	68,126	251,470	333,985	354,102	237,8%
Jami	35,131	252,316	455,670	682,150	804,250	228,9%

Ixtiyoriy sug'urta mukofotlari 2021 yilga nisbatan 2025 yilda 98% ga oshgan bo'lib, kompaniyaning mijozlar segmentida ishonch va xizmatlar diversifikatsiyasi kuchayganini ko'rsatadi. Majburiy sug'urta 130,6% ga o'sib, ayniqsa 2023-2024 yillarda tez sur'atda rivojlangan. Jami ko'rsatkichlar 108,7% o'sish bilan barqaror kengayishni namoyon etadi. APEX INSURANCE kompaniyasi sug'urta mukofotlari yillar davomida izchil o'sganini tasdiqlaydi. Ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlaridagi ijobiy dinamika kompaniya strategiyasi samaradorligidan dalolat beradi. 2025 yilga kelib, jami ko'rsatkichning keskin oshishi kompaniyaning bozordagi pozitsiyasi yanada mustahkamlanganini anglatadi.

APEX INSURANCE kompaniyasining 2021-2025 yillarda to'lab berilgan sug'urta qoplamlari dinamikasi kompaniyaning mijozlar oldidagi majburiyatlarni bajarish darajasi va sug'urta hodisalari qamrovining kengayishini ko'rsatadi. Ixtiyoriy va majburiy sug'urta turlari bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlar kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va xizmatlar sifatiga doir muhim tendensiyalarni aks ettiradi. (2-jadval).

2-jadval

APEX INSURANCE kompaniyasi sug'urta bozorida to'lab berilayotgan sug'urta qoplamlarining yillar bo'yicha o'sish dinamikasi mlrd so'mda³


Ko'rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	2021 yilga nisbatan 2025 yilda o'sish yoki kamayish (%) da
Ixtiyoriy sug'urta	20,241	184,190	204,200	348,165	450,148	222,3%
Majburiy sug'urta	14,890	68,126	251,470	333,985	354,102	237,8%
Jami	35,131	252,316	455,670	682,150	804,250	228,9%

Ixtiyoriy sug'urta qoplamlari 2025 yilga kelib 2021 yilga nisbatan 222,3% ga oshgan, bu sug'urta hodisalari soni yoki qoplama hajmi oshib borganini anglatadi. Majburiy sug'urtada o'sish 237,8% ni tashkil etdi. Jami qoplamlarning 228,9% ga ko'payishi kompaniya faoliyatida mijozlar talabining ortganini ko'rsatadi.

2021-2025 yillar tahlili APEX INSURANCE tomonidan to'lab berilgan sug'urta qoplamlarining barqaror va jadal o'sganini tasdiqlaydi. Bu kompaniyaning ishonchligi, mijozlar sonining ko'payishi va sug'urta portfelining kengayib borayotganidan dalolat beradi. O'sish sur'atlari kompaniyaning sug'urta bozorida mavqei yanada mustahkamlagan.

Umuman olganda "O'zbekinvest" EISK AJning so'nggi yillardagi moliyaviy ko'rsatkichlari kompaniya barqarorligini aks ettiradi. Kapital, zaxira va aktivlar hajmining o'sishi sug'urta bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. 2019-2023 yillar ma'lumotlari asosida kompaniyaning moliyaviy salohiyati va barqaror rivojlanish dinamikasi tahlil qilindi. (2-rasm)

³ Muallif tomonidan tayyorlangan.



2-rasm. “O‘zbekinvest” EISK AJ kapitali, zaxirasi va aktivlari, mlrd.so‘m⁴

Ushbu rasimga ko‘ra, kapital 2020 yilda sezilarli oshgan, keyingi yillarda esa barqaror holatda qolgan. Zaxiralar ayniqsa 2022–2023 yillarda keskin ko‘tarilib, 226,1 mlrd so‘mdan 1317,4 mlrd so‘mgacha yetgan. Aktivlar ham izchil o‘tib, 2019 yildagi 965,1 mlrd so‘mdan 2023 yilda 2025,1 mlrd so‘mga ko‘tarilgan. Bu kompaniyaning kengayish va moliyaviy barqarorligini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, 2019–2023 yillaridagi o‘shish dinamikasi “O‘zbekinvest” EISK AJning moliyaviy salohiyati mustahkamlanayotganini tasdiqlaydi. Zaxira va aktivlar hajmining tez sur‘atlarda ko‘payishi kompaniyaning risklarni qoplash imkoniyatini oshiradi. Kapitalning barqarorligi esa uzoq muddatli rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi.

“O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasining 2017–2024 yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari kompaniyaning faoliyati kengayib, bozor ulushi va mijozlar bazasi sezilarli oshganini ko‘rsatadi. Korporativ mijozlar, xalqaro operatsiyalar va investitsion loyihalardagi o‘shish kompaniyaning raqobatbardoshligini yanada mustahkamlagan. (3-jadval).

3-jadval

“O‘zbekinvest” sug‘urta kompaniyasining asosiy ko‘rsatkichlari⁵

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	01.01.2017 y.	01.01.2024 y.	Mart a o‘shish	% da o‘shish
Korporativ mijozlar	mlrd.so‘m	97,0	1 127,6	11,6	1162%
Jismoniy shaxslar	mlrd.so‘m	6,9	106,3	15,4	1540%
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni sug‘urta qilish	mlrd.so‘m	4,7	44,3	9,4	941%
Erkin iqtisodiy zonalarining rezidentlarini sug‘urta qilish	mlrd.so‘m	1,2	16,1	13,4	1339%
Investitsion loyihalarni sug‘urta qilish	mlrd.so‘m	2,5	50,8	20,3	2030%
Xalqaro sug‘urta bozorlarida olingan sug‘urta mukofotlari hajmi (sug‘urta xizmatlari eksporti)	ming. AQSh doll.	0,8	52 820,1	65 210,0	6521001 %
Xalqaro sug‘urta bozorlarida olingan sug‘urta mukofotlarining umumiy sug‘urta mukofotlari	foiz	0,002%	50,8%	25 380,1	2538011 %

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

- Nosirov J.T. "Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni boshqarish bosqichlari". - CEDR.uz
- Hamdamov O.N. "Aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda moliyaviy menejmentning ahamiyati". - ITM.uz

⁴ Muallif tomonidan tayyorlangan.

⁵ Muallif tomonidan tayyorlangan.

hajmidagi ulushi					
Sug‘urta tovonlari	mlrd.so‘m	13,5	132,4	9,8	980%
Sug‘urta tovonlarining sug‘urta mukofotlari yig‘imiga nisbatan ulushi (zarar)	foiz	13,0%	10,7%	0,8	83%

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, barcha yo‘nalishlarda keskin o‘shish kuzatilgan. Xususan, investitsion loyihalarni sug‘urta qilish 20 barobarga, xalqaro sug‘urta mukofotlari esa million martalab oshgan. Jismoniy shaxslar va kichik biznes segmentining o‘shishi ichki bozorni mustahkamlasa, zarar ko‘rsatkichining 13foizdan 10,7%ga kamayishi kompaniyaning risklarni boshqarish samaradorligini ko‘rsatadi. “O‘zbekinvest”ning 2017–2024 yillar davomida faol ravishda rivojlanib, ichki va xalqaro bozorlar uchun ishonchli hamkor sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. Sug‘urta mukofotlari va mijozlar ulushi oshishi, shuningdek zararlar qisqarishi kompaniyaning barqarorligi va rivojlanish strategiyasining to‘g‘ri tanlanganligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar (Заключение. Conclusion). Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash jarayonida bir qator muammolar mavjud bo‘lib, ular iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va boshqaruv tizimi bilan bog‘liq turli omillar bilan shartlangan. Bu muammolar sug‘urta kompaniyalarining samarali faoliyat yuritishiga va sug‘urta bozorining barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi. Mazkur muammolarni chuqurroq tahlil qilish ularni bartaraf etish bo‘yicha maqsadli chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Birinchi muammo – sug‘urta kompaniyalarining kapital yetarlicligi va likvidlik darajasining pastligi. Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy majburiyatlarini to‘liq va o‘z vaqtida bajarishi uchun yetarli kapitalga ega bo‘lishi lozim. Biroq, O‘zbekistondagi sug‘urta kompaniyalarining aksariyatida kapital yetarlicligi va likvidlik darajasi cheklangan. Bu esa kompaniyalarning majburiyatlarini o‘z vaqtida qoplash imkoniyatini pasaytiradi, xususan, katta hajmdagi sug‘urta da‘volari yuzaga kelganda moliyaviy barqarorlikka jiddiy tahdid tug‘diradi.

Ikkinchi muammo – moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va hisob-kitob standartlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari orqali ularning holati va moliyaviy barqarorligi baholanadi. Biroq, bugungi kunda ayrim sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy hisobotlari to‘liq shaffof emas yoki xalqaro standartlarga to‘liq mos kelmaydi. Bu esa ularning ishonchligini pasaytiradi va investitsiya muhitini sustlashtiradi.

Uchinchi muammo – qayta sug‘urta mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi. Qayta sug‘urta sug‘urta kompaniyalari uchun xavfni taqsimlashning muhim vositasi hisoblanadi. O‘zbekistonda qayta sug‘urta amaliyoti cheklangan bo‘lib, mahalliy kompaniyalar ko‘p hollarda xalqaro qayta sug‘urta kompaniyalari bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega emas. Bu esa kompaniyalarning katta tavakkalchiliklarni o‘z zimmasiga olishiga va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda qiyinchiliklarga olib keladi.

3. Nurmuratov M. "Narxlar va moliyaviy tizim barqarorligi". - Bankers.uz.
4. Shennayev X.M. "Sug'urta bozorini rivojlantirishning dolzarb muammolari". - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2017.
5. "APEX INSURANCE" AJ ning yillik hisobot ma'lumotlari.
6. "O'zbekinvest" EISK AJ ning yillik hisobot ma'lumotlari.